

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI  
ELLIKQAL‘A TUMANI  
HOKIMI FARMOYISHI**



**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ  
QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ  
ELLIKQALA RAYONÍ  
HÁKIMI BIYLIĞI**

2021 - yil 12 - oktabr

10-13-194-F/21

Ellikqal‘a tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikaasi Bosh Vazirining o‘rinbosari – Investitsiyalar va tashqi savdo vazirining 2021 yil 11 avgustdagi 24/17-222-sonli, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 2021 yil 28 sentabrdagi 06/1182-sonli topshiriqlariga muvofiq, hududlar o‘rtasida investitsiyaviy va savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida har bir hududdan delegatsiyalarni Rossiya Federatsiyasi hududlariga xizmat safariga chiqishi topshiriqi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021 yil 7 oktabr kungi 81-13-0-F/21-sonli farmoyishi ijrosini ta‘minlash maqsadida

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021 yil 7 oktabr kungi 81-13-0-F/21-sonli farmoyishi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining mazkur farmoyishi bilan:

a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 2021 yil 5 oktabrdagi 01-596-sonli topshirig‘iga asosan joriy yilning 13-22 oktyabr kunlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi delegatsiyasi (1-ilovaga muvofiq) Boshkortostan Respublikasi, Penza va Ulyanovsk viloyatlariga (Rossiya Federatsiyasi) maqsadli xizmat safarida ishtirok etadigan delegatsiya tarkibidagi byudjet tashkilotlari vakillarining ishtiroki bilan bog‘liq bo‘lgan xizmat safari xarajatlari uchun pul mablag‘lari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining zahira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ajratilishi to‘g‘risidagi ko‘rsatmasi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinganligi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi moliya vazirligi (M.Sadiqov) Rossiya Federatsiyasiga xizmat safarida ishtirok etuvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi delegatsiyasining Byudjet tashkilotlari vakillarining ishtiroki bilan bog‘liq xizmat safari xarajatlari 2-ilovaga muvofiq ajratilishini ta‘minlashi;

v) Nukus shahri hamda Ellikqal‘a va Qo‘ng‘irot tumanlari hokimliklari xizmat safari bilan bog‘liq harajatlari tuman mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan

ajratilishi belgilab qo'yilganligi;

g) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Ishlar Boshqarmasi (A.Ismailov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi (M.Kurbanov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (YU.Alimov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (V.Jolibekov), O'zbekiston Respublikasi savdo-sanoat palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (D.Joldasov)ga, ajratilgan mablag'larni belgilangan tartibda maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash hamda moliyalashtirish manbasini ochish uchun o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi va G'aznachilik boshqarmalariga taqdim etish vazifalari yuklatilganli;

d) Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (A.Qazaqbaev)ga ajratilgan mablag'larning maqsadli foydalanishi ustidan nazorat qilish vazifalari topshirilganli ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimi o'rinbosari – Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i Kamalov Akmal Djumabaevich joriy yilning 13-22 oktabr kunlarida Boshkortostan Respublikasi, Penza va Ulyanovsk viloyatlariga (Rossiya Federatsiyasi) maqsadli xizmat safariga yuborilsin.

4. Tuman Moliya bo'limi (M.Rozumov) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021 yil 7 oktabr kungi 81-13-0-F/21-sonli farmoyishiga asosan xizmat safari harajatlarini 1-ilovaga muvofiq mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan ajratish topshirilsin.

5. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari B.Alimov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**Avezov S. S.**

Эликкалга туман ҳокимининг  
2021 йил 12 октябрдаги  
10-13-194-F/21-сон фармойишига  
1-илова

**Boshkortostan Respublikasi, Penza va Ulyanovsk viloyatlariga  
(Rossiya Federatsiyasi) xizmat safari xarajatlar**

**SMETASI**

№	Xarajat turlari	miqdori				Jami xarajatlar	
		kishi	kun	me'yor	O'lchov birligi	AQSH doll.	So'm
1	Kunlik xarajatlar	1	10	25	AQSH doll.	250	2662958
2	Mehmonxona xarajatlari	1	9	50	AQSH doll.	450	4793324
3	Ko'zda tutilmagan xarajatlar	1		100	AQSH doll.	100	1065183
4	Rossiya Federatsiyasi hududlarida ichki transport	1	9	5	AQSH doll.	45	479333
5	Suvinirlar uchun xarajatlar	1		400	AQSH doll.	400	4260732
<b>Transport xarajatlari</b>							
6	Nukus-Toshkent-Nukus	1		1000000	So'm		1000000
7	Toshkent-Moskva-UFA	1		5000000	So'm		5000000
8	UFA- Moskva-Ulyanovsk	1		3000000	So'm		3000000
9	Ulyanovsk- Moskva-Penza	1		3000000	So'm		3000000
10	Penza-Moskva-Toshkent	1		5000000	So'm		5000000
<b>Jami</b>							<b>30261530</b>